

XIVA XONLIGIDA YER EGALIGI MUNOSABATLARI VA SOLIQ SIYOSATI (XVIII-XX)

Mo'minov Nodirbek Botir o'g'li
e-mail: mominovnodir04@gmail.com
Tel: +998902494943

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Bizga ma'lumki XVI asrgacha bir mintaqada, yagona davlat bo'lib yashab kelayotgan Turon xalqlari, ushbu davrga kelib uch davlatga bo'linib ketadi. Bu davlatlar Buxoro, Xiva va kiyinchalik Qo'qon xonligidir. Bu davlatlarning o'xshashliklari juda ham ko'p. Bu o'xshashliklar yer egaligi munosabatlarida ham yaqqol ko'rindi. Bu sohada bir-biriga o'xshashliklar bor bo'lsada, biroq bu tartiblar juda eski va taraqqiyotga g'ov bo'lib qolgandi. Davlat esa agrar davlatchiligicha qolib ketgan, hukumatning asosiy boyligi yer orqali keladigan soliqlarga tayangandi. Ushbu maqolada Xiva xonligida yer egaligi munosabatlari haqida manbalar asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: Xiva, Soliq, Muhammad Rahimxon I, tanob, avsat.

Аннотация: Как известно, туранские народы, жившие в одном регионе до XVI века, к этому времени были разделены на три страны. Этими странами являются Бухара, Хива, а позднее Коханскоэ ханство. Эти страны имеют много общего. Это сходство проявляется и в отношениях собственности на землю. Хотя в этой области есть сходства, эти процедуры очень старые и стали препятствием для развития. Государство оставалось аграрным государством, и основное богатство правительства основывалось на земельных налогах. В данной статье на основе источников рассматриваются отношения собственности на землю в Хивинском ханстве.

Ключевые слова: Хива, Салик, Мухаммад Рахимхан I, Танаb, Авсат.

Abstract: As we know, the Turanian peoples, who lived in one region until the 16th century, were divided into three countries by this time. These countries are Bukhara, Khiva, and later Kokhan Khanate. These countries have many similarities. These similarities are also evident in land ownership relations. Although there are similarities in this area, these procedures are very old and have become an obstacle to development. The state remained an agrarian state, and the main wealth of the government was based on land taxes. This article covers land ownership relations in Khiva Khanate based on sources.

Key words: Khiva, Saliq, Muhammad Rahimkhan I, Tanab, Avsat.

Xiva xonligi iqtisodiy hayotida dehqonchilik alohida ajralib turadi. Butun O'rta Osiyo hududida bo'lgani ka'bi Xiva xonligida ham yer egaligi munosabatlarining

quyidagicha shakllari mavjud edi. Davlatga qarashli yerlar yoki podsholik yerkari, xususiy shaxslarga qarashli yerlar ya'ni mulk yerkari, Diniy muassasalarga qarashli yerkari, yoki vaqf yerkaridir. Podsholik yerkari bevosita davlatga, davlat rahbari xonga tegishli bo'lib, avloddan avlodga meros bo'lib o'tgan. Davlat yerkariga unumdar yerkardan tashqari, tashlandiq yerkari, qumliklar, adirlar va yaylovlar, ko'l va to'qayzorlar ham kirgan. Davlat yerkari bosib olingan yerkar hisobiga, xonga qarshi mulkdorlarning musodara qilingan yerkari hisobiga kattalashib borgan. Xususiy yerkari xonning o'ziga, uning yaqinlariga, yirik boylarga, saroy amaldorlariga, harbiylarga va boshqa zodagonlarga tegishli yerkari bo'lgan. Xonlikda suvga yaqin bo'lgan hosildor yerkari asosan mulkdorlar qo'lida bo'lgan. XIX asrning birinchi yarmidagi ma'lumotlarga ko'ra, mulk egalarining egallab turgan yerkari sug'oriladigan umumiylarning yarmidan ko'pini tashkil qilgan¹.

Vaqf yerkari doimgidek, madrasalar va diniy mahkamalar, masjidlar, qabristonlar xarajatlari uchun ajratilgan yer-mulklar kiradi. Qishloq jamoalari egalik qiladigan yerkari mehnatkash dehqonlarga odatda 8-12 tanob qilib bo'lib berilgan. Dehqon bu yerkarda o'z oila-a'zolari bilan ishlagan, mehnat qilgan. Xiva iqtisodiyotining asosini dehqonchilik va chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq tashkil etib, dehqonchilikda Amudaryo quyisi oqimidan olingan ko'plab kanallar va ariqlar muhim o'rinni tutgan. Ulardan quyidagi o'n bitta kanal davlat ahamiyatiga molik bo'lgan. Pitnak kanali, Polvon kanali, G'azovot kanali, Shoxabboz kanali, Yarmish kanali, Qilich Niyobiy kanali, Karako'z kanali, Arna kanali, Bo'zsuv kanali, Suvvoli, Xon kanali shular jumlasidan².

Xonlikdagi asosiy uch xil yer shakliga doir ma'lumotlarga nazar tashlasak. Podsholik yerkari dehqonlarga, yersizlarga (bevatan)larga foydalanish uchun bo'lib berilganda, ulardan hosilning 40-50 foizgacha mahsulot yoki pul ko'rinishida soliq undirilgan. Soliqlar miqdoriga qarasak og'ir mehnatga nisbatan ancha ko'p.

Manbalarning ma'lumot berishicha, ayrim mulkdorlar ixtiyorida ikki uch ming tanobdan, o'nlab ming tanobgacha yer bo'lgan. Misol tariqasida aytadigan bo'lsak, Pitnak, Xazorasi va Sho'raxon shaharlari hamda ularga tutash bo'lgan qishloqlar amir ul-umaroga tegishli bo'lgan. Muhammad Aminxon o'gli Abdulla to'ruga 20 ming tanobdan ortiq yerni sovg'a qilgan. Ma'lumotlarga qaraganda xonlikda vaqf mulklari ham katta bo'lgan. A. Boltaevning yozishicha XIX asr o'rtalarida xonlikdagi vaqf mulkinining umumiyligi hajmi 170-175 ming tanobni tashkil etgan³.

Xiva xonligida yer egaligi munosabatlarda soliq siyosati albatta muhimdir. Xiva xonligida qo'shni qardosh mamlakatlarda bo'lgani ka'bi xiroj, zakot, boj, jizya, ka'bi soliq turlari mavjud bo'lgan. Muhammad Rahimxon I amalga oshirgan iqtisodiy

¹ Eshov. B. J, Odilov. A. A. "O'ZBEKISTON TARIXI" 1-jild. Toshkent-2014. 468 b.

² Sagdullaev A, Aminov B, Mavlonov U, Norqulov N."O'ZBEKISTON TARIXI: DAVLAT VA JAMIYAT TARAQQIYOTI" 245.

³ Bahodir Eshov. "O'ZBEKISTON DAVLATCHILIGI VA BOSHQARUV TARIXI" Toshkent-2012. 351 b.

islohat tufayli, davlatdagi soliq siyosatida bir qadar ijobjiy o'zgarishlar kiritildi. Oldinlari mahsulot ko'rinishida yig'ib olinadigan xiroj o'rniga pul solig'i (solg'ut) joriy etilgan. Bu islohatga binoan, 10 tanobdan ortiq yeri bo'lgan kishilarga bir yilda 3 tillo yig'ib olingan. Bu 3 tilloning qiymati 54 tangaga teng bo'lган. 5-10 tanob yeri bo'lganlar esa yiliga 2 tillo (36 tanga), 5 tanobgacha yeri bo'lgan dehqonlar 1 tillo (18 tanga) miqdorida soliq to'laganlar.

Xonlikda 15 tanobgacha yerni ijaraga olgan ijarakorlar yiliga mamalakat xazinasiga 34 tanga, 10 tanobgacha yerni yerni ijaraga olgan ijarakorlar esa yiliga davlat xazinasi uchun 22.6 tanga, 5 tanobgacha yerni ijaraga olgan kishilar esa 11.3 tanga miqdorida soliq to'laganlar. Ijarakorlar va dehqonlar xonlik xazinasiga soliqlarni to'lashlaridan tashqari, ijaraga yer bergen xo'jayinlariga pul yoki mahsulot bilan haq to'lashi yoki ishlab berishi kerak bo'lgan.

Xonlikdagi yarim o'troq va chorvador aholi ham davlat xazinasiga belgilab qo'yilgan miqdorda xiroj va zakot solig'ini to'laganlar. XIX asr boshlaridan boshlab ulardagi xiroj solig'i soliq kesma deb nomlana boshlangan. Bunga ko'ra, Qoraqalpoqlar va Qo'ng'irotlar ekin maydoni va hosil miqdoridan qat'iy nazar davlat xazinasiga har yili 24.5 ming kichik tillo miqdorida soliq to'lab borganlar. Qoraqalpoq va Qozoqlardagi hech qanday yeri ham, dehqonchilikda kerak bo'ladigan ot ulovi ham bo'limgan dehqonlar xon, uning qarindoshlari va saroy amaldorlarining shaxsiy yerlarida ijarakor bo'lsalar xosilning har 4 yoki 5 botmoni hisobidan ikki botmon miqdorida davlat xazinasiga soliq to'lagan⁴.

Chorvador aholi davlat xazinasiga zakot solig'ini to'lagan. XIX asr boshlarigacha bo'lgan davrda ushbu soliq turi natural tarzda, 40 bosh chorva xisobidan bir bosh undirilgan bo'lsa, kiyingi davrlarda zakotni undirishga o'tilgan. Endilikda chorvadorlar yirik chorva uchun 40 bosh chorvadan 5 tillo, mayda chorvaning har 40 boshiga 10 abbos (10 abbos – 25 kumush tanga) miqdorida soliq to'lagan.

Biz yuqorida keltirib o'tgandan tashqari Xiva xonligida aholining barcha o'troq, yarim o'troq va ko'chmanchi aholisi qazuv, begar, qochuv, otlanuv, boj puli, miltiq solig'i, ulov tutuv, qo'nalg'a, chopar puli, tarozi haqi, mirobona, darvozabon, mir tuman haqi, afanak puli singari qo'shimcha to'lov va majburiyatlarni ham bajarganlar. Ular yuqorida aytib o'tilgan har yili turli majburiyatlar uchun 12 kun bepul ishlab bergenlar⁵.

Xiva xonligida yer egaligi formalari XIX asrda quyidagicha tusga kirgan edi.

Yerlarning eng katta qismi xususiy kishilarga qarashli mulk yerlaridan iborat iborat edi. Soliq solinishi jihatidan mulk yerlari uch kategoriya bo'lingan edi. 5 tanobgacha yeri bo'lganlar pastgi kategoriyadagi dehqonlardan hisoblanib, bunday dehqonlar abno deb atalar edi. 5-10 tanob yeri bo'lganlar o'rta hol dehqon hisoblanib,

⁴ Eshov. B. J, Odilov. A. A. "O'ZBEKISTON TARIXI" 1-jild. Toshkent-2014. 468-470 b.

⁵ Eshov. B. J, Odilov. A. A. "O'ZBEKISTON TARIXI" 1-jild. Toshkent-2014. 470 b.

ular avsat deb atalgan. 10 tanobdan ortiq yeri bor dehqonlar, boy dehqon hisoblanib ular A'lo deb atalgan edi⁶.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Xiva xonligida yerdan foydalanish munosabatlarda juda ortda qolgan edi. G'arbiy Yevropa va boshqa hududlarda kapitalistik munosabatlar shakllanayotgan davrda bizda hali ham feudal yer egaligi munosabatlari hukmron bo'lган. M.Y. Yo'ldoshevning "Xiva xonligida feudal yer egaligi va davlat tuzulishi" nomli kitobidagi ma'lumotlar fikrimizni yaqqol isbotlaydi. Ushbu kitobda soliq turlari, kimga qancha yer berilganligi va soliq undirish shartlari haqiqiy manbalar asosida yozib qo'yilgan. Ijtimoiy hayotdagi barcha sohalar o'rtacha rivojlanganligini hisobga olsak Xiva xonligining rivojlanish imkoniyati yo'q emas edi. Mamlakatning eng asosiy boyligi va iqtisodiyotning asosini tashkil qilgan qishloq xo'jaligi tog'ri yo'lga qo'yilmaganligi esa davlatning kuchsizlanishiga, boshqa davlatning vassaliga aylanib qolishiga olib keldi. Ichki ziddiyatlarning kuchliligi, xazinaning zaifligi va yo'qolib borishi natijasida armiyaning tarqalib ketishligi taxt uchun talashga va o'zga davlat bosqiniga asosiy sabab edi. Bu davrda O'rta Osiyoning barcha davlatlarida xuddi shunday ahvol edi. Umuman ushbu davrlarda nafaqat Xonliklar balki butun sharq olamida yer egaligi munosabatlarda feudal munosabatlar ko'rinishini saqlab kelayotgan edi. Buning natijasida ular asta sekin yirik davlatlar vassaliga aylanib borardi. Afsuski Xiva xonligi ham ularning biri bo'ldi. Zero iqtisodiy munosabatlar jamiyat hayotida to'g'ri yo'lga qo'yilmas ekan, u siyosiy inqirozning asosiy sababchisi bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Eshov. B. J, Odilov. A. A. "O'ZBEKISTON TARIXI" 1-jild. Toshkent-2014. 468 b.
2. Sagdullaev A, Aminov B, Mavlonov U, Norqulov N."O'ZBEKISTON TARIXI: DAVLAT VA JAMIYAT TARAQQIYOTI" 245.
3. Bahodir Eshov. "O'ZBEKISTON DAVLATCHILIGI VA BOSHQARUV TARIXI" Toshkent-2012. 351 b.
4. Eshov. B. J, Odilov. A. A. "O'ZBEKISTON TARIXI" 1-jild. Toshkent-2014. 468-470 b.
5. Eshov. B. J, Odilov. A. A. "O'ZBEKISTON TARIXI" 1-jild. Toshkent-2014. 470 b.
6. Yo'ldoshev M. Y. "XIVA XONLIGIDA FEODAL YER EGALIGI VA DAVLAT TUZILISHI" Toshkent-1959. 98 b.

⁶ Yo'ldoshev M. Y. "XIVA XONLIGIDA FEODAL YER EGALIGI VA DAVLAT TUZILISHI" Toshkent-1959. 98 b.